

“RAQAMLI JAMIYAT SHAROITIDA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR VA SPORTNING SOHALAR BILAN INTEGRATSIYASI”

Sultanova Ozoda Rajabovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, charvochilik va biyotexnologiyalari
universiteti o‘qituvchisi

Tohirov Shaxboz, talaba

Annotasiya: Mazkur maqolada raqamli jamiyat sharoitida ijtimoiy-gumanitar fanlar va sportning turli sohalar bilan integratsiyasi masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Globallashuv va raqamli texnologiyalar rivoji fonida sportning ijtimoiy institut sifatidagi o‘rni, uning tinchlik, do‘stlik va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashdagi ahamiyati yoritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Osiyo Olimpiya Kengashining 46-Bosh Assambleyasidagi nutqi asosida sport diplomatiyasining zamonaviy tendensiyalari, sport va ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ochib berilgan. Shuningdek, sportning ta’lim, axborot texnologiyalari va yoshlar siyosati bilan integratsiyasi raqamli jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli jamiyat, ijtimoiy-gumanitar fanlar, sport, integratsiya, sport diplomatiyasi, globallashuv, Osiyo Olimpiya Kengashi, yoshlar siyosati

ИНТЕГРАЦИЯ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК И СФЕРЫ СПОРТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической точки зрения рассматриваются вопросы интеграции социально-гуманитарных наук и спорта с различными сферами в условиях цифрового общества. На фоне глобализации и стремительного развития цифровых технологий раскрывается роль спорта как социального института, а также его значение в укреплении мира, дружбы и международного сотрудничества. На основе выступления Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на 46-й Генеральной Ассамблее Олимпийского совета Азии анализируются современные тенденции спортивной дипломатии и взаимосвязь спорта с социально-гуманитарными науками. Также обосновывается интеграция спорта с образованием, информационными технологиями и молодежной политикой как важный фактор развития цифрового общества.

Ключевые слова: цифровое общество, социально-гуманитарные науки, спорт, интеграция, спортивная дипломатия, глобализация, Олимпийский совет Азии, молодежная политика.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the integration of social and humanitarian sciences and sports with various sectors in the

context of a digital society. Against the background of globalization and the rapid development of digital technologies, the role of sport as a social institution and its importance in strengthening peace, friendship, and international cooperation are examined. Based on the speech of the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, at the 46th General Assembly of the Olympic Council of Asia, modern trends in sports diplomacy and the close relationship between sport and social-humanitarian sciences are revealed. In addition, the integration of sport with education, information technologies, and youth policy is substantiated as a key factor in the development of a digital society.

Keywords: digital society, social and humanitarian sciences, sport, integration, sports diplomacy, globalization, Olympic Council of Asia, youth policy.

Hozirgi globallashtirish va raqamlashtirish jarayonlari sharoitida jamiyat hayotining barcha sohalarini, jumladan, ta'lim, ijtimoiy-gumanitar fanlar va sport tizimi tubdan o'zgarib bormoqda. O'zbekiston Respublikasida ham raqamli jamiyatni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ta'lim va sport sohalariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Ijtimoiy-gumanitar fanlar jamiyatning ma'naviy, madaniy va axloqiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Raqamli jamiyat sharoitida ushbu fanlarning sport sohasi bilan integratsiyasi yoshlarning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan, tarix, falsafa, sotsiologiya va pedagogika fanlari sport orqali milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, sog'lom turmush tarzini targ'ib etishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi sport sohasida ham yangi imkoniyatlarni yaratdi. Elektron platformalar, mobil ilovalar, onlayn mashg'ulotlar va raqamli monitoring tizimlari sportchilarning jismoniy tayyorgarligini nazorat qilish, natijalarni tahlil qilish hamda samaradorlikni oshirishga yordam bermoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli axborot manbalari orqali sport madaniyatini targ'ib qilish, aholining sportga bo'lgan qiziqishini oshirish imkoniyati kengaymoqda.

Ta'lim tizimida fanlararo integratsiya, xususan, ijtimoiy-gumanitar fanlar va sportni uyg'unlashtirish orqali innovatsion pedagogik yondashuvlar shakllanmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida raqamli ta'lim texnologiyalari asosida olib borilayotgan mashg'ulotlar talabalarning mustaqil fikrlashini, tahliliy qobiliyatini va ijodiy yondashuvini rivojlantirmoqda. Sport mashg'ulotlariga psixologiya, pedagogika va axborot texnologiyalari elementlarining qo'shilishi esa sportchilarni har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Davlat tomonidan yoshlar siyosati doirasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ommaviy sportni rivojlantirish va raqamli bilimlarni oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda ijtimoiy-gumanitar fanlar sport bilan uzviy bog'liq holda

jamiyatda ijtimoiy faollikni oshirish, fuqarolik ongini shakllantirish va milliy sport an'analarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

“Biz yoshlarimizni nafaqat jismonan sog'lom, balki mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarga ega, vatanparvar insonlar etib tarbiyalashimiz zarur”

— Bu fikr Prezidentning 30 iyun 2025 yilda Yoshlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan uchrashuvdagi nutqidan olingan. Prezidentimiz yoshlar tarbiyasi, ta'lim va sport masalalariga alohida urg'u bergandilar. Asosiy maqsad yuqori sport natijalariga faqat bitta Olimpiada emas, doimiy va mustahkam zamin yaratishdir.

Iqtidorli sportchilarni eng quyi bo'g'indan boshlab saralash va professional etib tayyorlash uchun uch bosqichli “Yangi O'zbekiston Olimpiya cho'qqilari” musobaqasi yo'lga qo'yildi. Uning final bosqichi har yili Olimpiya shaharchasida “Prezident Olimpiadasi” sifatida o'tkaziladi. G'olib va sovrindor sportchilar Olimpiya markazlariga jalb etilib, professional tayyorlanadi.

Respublika olimpiya va paralimpiya markazining faoliyati milliy terma jamoalar zaxirasini yaratishga qaratiladi. O'quv-mashg'ulotlar o'tkazib borish uchun Olimpiya shaharchasi inshootlari markazga beg'araz asosda birlashtirildi. Shuningdek, atletlar zaxirasini kengaytirish maqsadida xususiy sport klublari faoliyati takomillashtirilib, rasmiy musobaqalardagi ishtiroki ta'minlanadi. Yuqori natija ko'rsatgan sportchilar milliy terma jamoalarga qabul qilinishi mumkin bo'ladi. Bugungi globallashuv va raqamlashtirish davrida jamiyat taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji inson faoliyatining barcha sohalariga, jumladan, fan, ta'lim, madaniyat, siyosat va sport tizimiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli jamiyat sharoitida ijtimoiy-gumanitar fanlar va sportning o'zaro integratsiyasi jamiyat barqarorligi, tinchlik, hamkorlik va inson kapitalini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Osiyo Olimpiya Kengashining 46-Bosh Assambleyasidagi nutqida sportning global miqyosdagi ijtimoiy, madaniy va siyosiy ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Mazkur nutqda sport nafaqat jismoniy tarbiya vositasi, balki xalqlar o'rtasida do'stlik, o'zaro tushunish va hamjihatlikni mustahkamlovchi muhim ijtimoiy institut ekani alohida ta'kidlangan. Ushbu maqolada raqamli jamiyat sharoitida ijtimoiy-gumanitar fanlar va sportning boshqa sohalar bilan integratsiyasi masalasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Raqamli jamiyat — bu axborot texnologiyalari asosida shakllangan, bilim, ma'lumot va innovatsiyalar asosiy resursga aylangan ijtimoiy tuzumdur. Bunday jamiyatda ijtimoiy-gumanitar fanlarning roli yanada ortadi. Chunki texnologik taraqqiyot bilan bir qatorda inson omili, qadriyatlar, madaniyat, axloq va ijtimoiy munosabatlarni chuqur o'rganish zarurati kuchayadi.

Sotsiologiya, falsafa, tarix, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik kabi fanlar raqamli jamiyatda yuzaga kelayotgan ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish, ularning jamiyat hayotiga ta'sirini baholashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, sport sohasining jamiyat ongiga, yoshlar tarbiyasiga va xalqaro munosabatlarga ta'sirini o'rganishda ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan integratsiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Sport zamonaviy jamiyatda mustaqil ijtimoiy institut sifatida shakllangan. U nafaqat jismoniy sog'lomlashtirish, balki ijtimoiylashuv, tarbiya, madaniy almashinuv va diplomatik aloqalarni rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida sportni "tinchlik va do'stlik elchisi" deb ta'riflar ekan, uning globallashuv sharoitidagi beqiyos o'rnini alohida e'tirof etdi. Sport orqali turli millat va elatlar vakillari bir maydonda jam bo'lib, o'zaro hurmat va adolat tamoyillari asosida bellashadi. Bu esa sportning ijtimoiy-gumanitar mazmunini yanada boyitadi. Sport jarayonlarida shakllanadigan intizom, raqobat, hamjihatlik va mas'uliyat kabi fazilatlar jamiyatning ma'naviy rivojiga xizmat qiladi. Sport va ijtimoiy-gumanitar fanlar o'rtasidagi integratsiya, avvalo, sport sotsiologiyasi, sport psixologiyasi, sport falsafasi va sport menejmenti kabi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Ushbu fanlar sportning jamiyatdagi o'rnini, uning ijtimoiy funksiyalarini va inson shaxsiga ta'sirini ilmiy asosda o'rganadi. Masalan, sport sotsiologiyasi sport orqali ijtimoiy tenglik, gender masalalari, yoshlar muammolari va milliy o'zlikni anglash jarayonlarini tahlil qiladi. Sport psixologiyasi esa sportchilarning ruhiy holati, motivatsiyasi va stressga chidamliligini o'rganib, yuqori natijalarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishlarning barchasi raqamli texnologiyalar yordamida yanada rivojlanmoqda.

Raqamli jamiyat sharoitida sport sohasida innovatsion texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (big data), biometrik tizimlar va raqamli monitoring sportchilarning tayyorgarlik darajasini tahlil qilishda muhim vositaga aylandi. Bu esa sportning ilm-fan, tibbiyot va axborot texnologiyalari bilan integratsiyasini kuchaytirmoqda. Bundan tashqari, raqamli platformalar orqali sport musobaqalarining jonli translyatsiyalari, onlayn tahlillar va virtual musobaqalar tashkil etilmoqda. Bu jarayon sportning ommaviyligini oshirib, uni global madaniyatning ajralmas qismiga aylantirmoqda. Osiyo Olimpiya Kengashining milliardlab aholiga ega qit'ani birlashtirayotgani raqamli sport diplomatiyasining yorqin misolidir. Sport diplomatiyasi bugungi kunda xalqaro munosabatlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Yirik sport tadbirlari davlatlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash, madaniy aloqalarni rivojlantirish va ijobiy imijni shakllantirishga xizmat qiladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev nutqida Osiyo Olimpiya Kengashi faoliyati orqali "Jipslashgan Osiyo" g'oyasining ilgari surilayotgani bejiz

emas. O'zbekistonning xalqaro sport maydonidagi faolligi, yirik sport tadbirlariga mezbonlik qilayotgani va Osiyo Olimpiya Kengashi bilan hamkorligi mamlakatimizning ochiq va tinchlikparvar siyosatini namoyon etadi. Bu jarayon sportning siyosatshunoslik va xalqaro munosabatlar fanlari bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Raqamli jamiyatda sport ta'lim tizimi bilan ham chambarchas integratsiyalashmoqda. Sport orqali yoshlarni vatanparvarlik, intizom va sog'lom turmush tarziga yo'naltirish mumkin. 2029-yilgi Yoshlar Osiyo o'yinlarining O'zbekistonda o'tkazilishi yosh avlodni sportga jalb qilish, ularning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida sport va ijtimoiy-gumanitar fanlarning uyg'unligi yoshlarning har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi. Raqamli ta'lim platformalari esa sport nazariyasi va amaliyotini samarali o'rgatish imkonini bermoqda.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, raqamli jamiyat sharoitida ijtimoiy-gumanitar fanlar va sportning boshqa sohalar bilan integratsiyasi jamiyatning barqaror rivoji, tinchlik va hamkorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Sport nafaqat jismoniy sog'lomlashtirish vositasi, balki ijtimoiy birlik, madaniy muloqot va global hamjihatlikni mustahkamlovchi kuchli ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Osiyo Olimpiya Kengashi 46-Bosh Assambleyasidagi nutqi sportning zamonaviy jamiyatdagi o'rnini chuqur ochib berib, uni ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan uyg'un rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Kelgusida raqamli texnologiyalar asosida sport va ijtimoiy-gumanitar fanlar integratsiyasini yanada kuchaytirish jamiyat taraqqiyotining muhim strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT
MIRZIYOYEVNING OSIYO OLIMPIYA KENGASHINING 46-BOSH
ASSAMBLEYASIDAGI NUTQI /2026-yil 26-yanvar